

**Namangan viloyati Norin tumanida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan  
tashabbusli budjetlashtirish jarayoni**

**Nurali Validjonov**

**Jahonmirzo Mirzahalimov**

**Samandar Xamraev**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

*“Moliya” fakulteti MMT 81k-guruh talabalari*

**Annotatsiya:** *Maqolada mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini shakllantirish, mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari samaradorligini ta'minlashning ilmiy-amaliy jihatlari yoritilgan. Hududlarning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish, shuningdek, mahalliy budjet xarajatlaridan oqilona va samarali foydalanish hisobiga mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqotlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

**Kalit so'zlar:** *mahalliy byudjet; mahalliy byudjet daromadlari; mahalliy byudjet xarajatlari; mahalliy hokimiyat organlari; mahalliy soliqlar va yig'imlar; hududlar; mintaqaviy iqtisodiyot.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Namangan viloyati Norin tumani misolida 2021-2023-yillarda “Tashabbusli byudjet” loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishib chiqdik.

Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va liberallashtirish, samarali soliq-byudjet siyosatidan foydalangan holda

iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat boshqaruvini markazsizlashtirish jarayonini davom ettirish joylarda davlat siyosatini amalga oshirishda mahalliy va hududiy hokimiyat organlarining mas'uliyatini oshirishga, respublika davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga bosqichma-bosqich o'tkazishga, shuningdek, hududiy davlat hokimiyati organlarining tuman, shahar hokimiyati organlariga vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Moliya sohasida soha va hududlarni mutanosib rivojlantirish hisobidan mahalliy byudjetning daromad bazasini kengaytirish zarur. Eng muhimi, tuman va shaharlarda mahalliy byudjetlarning kengaytirilishi aholining turmush darajasi va turmush sharoitini, umuman, barqarorlik va osoyishtalikni yuksaltirishga xizmat qilishi kerak".

### **1-jadval**

#### **Namangan viloyati Norin tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori<sup>1</sup>**

So'ngi yillarda yurtimizda tashabbusli byudjetlashtirish loyihalari bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bunga misol tariqasida Namangan viloyati Norin tumanida tashabbusli byudjetlashtirish loyihalarini ko'rib chiqamiz.

Biz Namangan viloyati Norin tumani 2021-2023-yillarda tashabbusli byudjetlashtirish uchun ajratilgan va o'tkazilgan mablag'lar miqdorini quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

(mln.so'mda)

---

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0,0	849,1	1 033,6
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	1 786,3	16 107,3	21 803,3
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1 500,0	15 391,9	15 281,6
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'	1 498,4	13 663,5	15 281,6
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	1,6	1 698,4	6 712,4
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	286,3	1 033,6	1 266,9

Biz Namangan viloyati Norin tumani 2021-2023-yillardagi tashabbusli byudjet loyihalarini, hisobotlarini o'rganish jarayonida shuni ko'rdikki 2021-yil Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 1786.3 mln.so'm o'tkazilgan shundan 14 984 mln.so'm moliyalashtirilgan hisobvaraqlardagi qoldiq 1,6 mln.so'mni tashkil qilmoqda 2021- yil yakunida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' 286,3 mln.so'mni tashkil qilgan. 2022-yil yil boshidagi qoldiq 849,1 mln.so'm bo'lgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 16 107,3 mln.so'm o'tkazilgan, shundan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan 15 391,9 mln.so'm moliyalashtirilgan, sarflangan mablag' 13 663,5 mln.so'mni tashkil qilmoqda."Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' 1 033,6 mln.so'mni tashkil qilganini ko'rish mumkin. 2022-yida 2021 yilga nisbatan o'sish sezilarli darajada bo'lgani raqamlarda ham bilinib turibdi. Masalan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 2021- yilga nisbatan 2022- yilda qariyb 10 barobar ortgan. 2023-yilda yil boshiga qoldiq qiymat 1 033,6 mln.so'm qolgan o'tkazilgan

mablag'lar 21 803,3 mln.so'm o'tkazilgan shundan 15 281,6 mln.so'm moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan va moliyalashtirilgan bu ko'rsatkich o'tkazilgan mablag'ning 70% ni tashkil qilmoqda. 2022- yilda esa bu ko'rsatkich 88,8% ni tashkil qilgan ekan. 2023- yil yakunida 1 266,9 mln.so'm qoldiq qolgan va keyingi yilga o'tkazilgan.

## 2-jadval

### **Namangan viloyati Norin tumani tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar<sup>2</sup>**

Biz endi Namangan viloyati Norin tumanida tashabbusli byudjet loyihalar soni va unga sarflangan mablag'larni yillar kesimida quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni (dona)			Sarflangan mablag' (ming so'mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>		<b>6</b>	<b>16</b>	<b>21</b>	<b>1 500 000</b>	<b>13 663 500</b>	<b>21 928 100</b>
1.	Hududiy ichki yo'llar	1	2	7	200 000	2 100 600	8 570 000
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	1	7	4	914 000	6 051 800	3 535 100
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	2	2	200 000	1 834 500	1 650 000

<sup>2</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

4.	Sogʻliqni saqlash muassasalarini taʼmirlash va jihozlash		5	6		3 676 600	6 200 000
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini taʼmirlash va jihozlash			1			823 500
6.	Ichimlik suvi taʼminotini yaxshilash	1			92 000		
7.	Koʻcha chiroqlarini oʻrnatish tadbirlari	2		1	94 000		1 150 000
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va koʻkalamzorlashtirish)						
9.	Boshqa tadbirlar						

Namangan viloyati Norin tumani tashabbusli byudjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar 2021- yilda 6 ta loyiha moliyalashtirilgan 1 500 000 ming.soʻm sarflangan. Hududiy ichki yoʻllarda 1 ta loyiha moliyalashtirilgan unga sarflangan mablagʻ 200 000 ming.soʻm yaʼni umumiy sarflangan mablagʻning 13.3 %ni tashkil qilmoqda. Umumtaʼlim maktablarini taʼmirlash va jihozlash, Maktabgacha taʼlim muassasalarini taʼmirlash va jihozlash, Maktabgacha taʼlim muassasalarini taʼmirlash va jihozlash sohalariga 1 tadan loyiha moliyalashtirilgan. Koʻcha chiroqlarini oʻrnatish tadbirlariga 2 ta takiflar moliyalashtirilgan boʻlib 94 000 ming.soʻm sarflangan. 2021- yilda eng koʻp umumtaʼlim maktablarini taʼmirlash va jihozlash tadbiriga 914 000 ming.soʻm yaʼni umumiy mablagʻning 60,9 % ni tashkil qilmoqda. 2022-yilda jami 16 ta loyiha gʻolib chiqiqqan boʻlib, 13 663 500 ming.soʻm sarflangan.

Bu koʻrsatkich 2021-yilga nisbatan qariyb 9 barobar kop moliyalashtirilgan. Shu takliflardan eng koʻp umumtaʼlim maktablarini

ta'mirlash va jihozlash sohasiga 7 ta taklif g'olib chiqqan bo'lib, 6 051 800 ming.so'm ya'ni umumiy sarflangan mablag'ning 44,29 % ni tashkil qilmoqda. Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlashda 5 ta tadbir g'olib chiqib 3 676 600 ming.so'm sarflangan bu 26,9 %ni tashkil qilmoqda. 2023-yilda 21 ta loyiha g'olib chiqqan va 21 928 100 ming.so'm sarflangan. 2022-yilga nisbatan 1,6 barobar oshgan.2021-yilga nisbatan esa,qariyb 15 barobar ortgan. 2023- yilda eng ko'p sarflangan sohalar hududiy ichki yo'llar 7 ta loyiha moliyalashtirilgan unga sarflangan mablag' 8 570 000 ming.so'm ni tashkil qilmoqda umumiy mablag'ga nisbatan 39%ni tashkil qilmoqda keyingi soha Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash bo'lib 6 ta soha go'lib chiqqan va unga 6 200 000 ming.so'm sarflangan.

### **3-jadval**

#### **Namangan viloyati Norin tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari<sup>3</sup>**

Biz endi Namangan viloyati Norin tumanida tashabbusli byudjet loyihalari doirasida 2021-2023- yillarda har bir chorak kesimida ajratilgan mablag'larni quyidagi jadvalda korishimiz mumkin.

**(mln,so'm)**

<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar	0	8691	11098,6
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	1786,3	1802,9	0

<sup>3</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	177,4	560,9	121
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	861,6	1242	827,68
	Iqtisod qilingan mablag'lar	0	0	0
Prezident qaroriga asosan		747,3	3736	0
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		<b>3572,6</b>	<b>16032,8</b>	<b>12047,28</b>

Namangan viloyati Norin tumanida tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lar 2021-yil choraklar kesimida mablag' ajratilmagan 2022-yilda 8 691 mln.so'mni tashkil qilmoqda. 2023-yilda esa 11098,6 mln.so'm mablag' ajratilgan. Jami ajratilgan summalar 2021-yilda 3572,6 mln.so'm. 2023-yilda 16032,8 mln.so'm. 2023-yilda esa 12047,28 mln.so'm mablag' ajratilgan.2021-2022- yillarda Prezident qaroriga muvofiq mablag' ajratilgan bo'lib bu 2021-yilda 747,0 mln.so'mni, 2022-yilda esa 3 736,0 mln.so'm ajratilgan.

#### **4-jadval**

#### **Namangan viloyati Norin tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi<sup>4</sup>**

Biz endi Namangan viloyati Norin tumanida tashabbusli byudjet loyihalari 2021-2023- yillar doirasida sohalar kesimida to'plangan ovozlar soni va moliyalashtirilgan mablag'larni miqdorini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

<b>T/r</b>	<b>Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)</b>	<b>Jami to'plagan</b>	<b>Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'</b>
------------	---	-----------------------	--

<sup>4</sup> <https://openbudget.uz/boards/reports>

## *Modern education and development*

		ovozlar soni	miqdori(ming.so 'm)
<b>2021-yilda</b>			
1.	Norin tumanidagi 14-sonli ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktab-internatini kapital rekanstrutsiya ishlari uchun.	1 411	914 000
2.	Norin tuman To'lqin MFYda joylashgan 17-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotini joriy tamirlash ishlariga	1 122	200 000
3.	Toshqin mahalla fuqarolar yig'ini hududini toza ichimlik suvi tortish ishlariga	878	92 000
4.	Sirmoq mahalla fuqarolar yig'ini hududiga tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish	782	49 000
5.	Boyovul mahalla fuqarolar yig'ini hududiga tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish	770	45 000
6.	Furqat mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi ichki ko'chalarini asfaltlash	476	200 000
	<b>JAMI</b>	<b>5439</b>	<b>1 500 000</b>
<b>2022-yilda</b>			
1.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	8260	986 100
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	7729	951 800



3.	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lkasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	7471	1 150 000
4.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	7384	980 000
5.	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	6918	990 000
6.	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	6372	900 000
7.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	6172	946 900
8.	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	6150	990 000
9.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	5890	970 000
10.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	5674	926 700
11.	Maktabgacha ta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	4881	892 600

12	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	4724	990 000
13	Maktabgacha ta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	4561	941 900
14	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	4250	600 000
15	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lkasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	2613	1 160 000
16	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	2233	986 000
	<b>JAMI</b>	<b>91282</b>	<b>15 361 900</b>
<b>2023-yilda</b>			
1.	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lkasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	8942	1 166 400
2.	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lkasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	7188	1 132 600
3.	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lkasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	7152	710 200
4.	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lkasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	6808	1 170 200

5.	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lkasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	6766	1 171 100
6.	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lkasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	6623	1 171 900
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish yoki ta'mirlash (transformator simyog'och o'rnatish ) talablari	5506	1 091 600
8.	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lkasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	5420	1 014 600
9.	Sport muossaslarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	5004	1 082 500
10	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	4958	838 900
11	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	4735	1 107 000
12	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	4437	1 158 000
13	Boshqa ta'lim muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	3826	941 200
14	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	3575	743 600

15	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	3258	1 106 900
16	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	2552	260 000
17	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	2240	1 157 300
18	Boshqa ta'lim muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	2204	639 700
19	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	2045	494 200
20	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	2021	791 800
21	Sog'liqni saqlash muossasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari	1800	508 900
	<b>JAMI</b>	<b>97060</b>	<b>20 127 700</b>

Namangan viloyati Norin tumanida 2021- yilda 6 ta tadbir amalga oshirilgan bo'lib jami 5 439 ta ovoz 6 ta soha bo'yicha to'plangan Norin tumanidagi 14-sonli ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktab-internatini kapital rekanstrutsiya ishlari uchun 1 411 ta ovoz to'plangan 914 000 ming.so'm moliyalashtirish uchun ajratilgan.2022-yilda 16 ta loyiha amalga oshirilgan eng yuqori ko'rsatkich ichki yo'llarni (piyodalar yo'lkasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlarga moliyalashtirilgan 1 160 000 ming.so'm

**moliyalashtirilgan. 2022 yilda jami to'plangan ovozlar soni 91 282 tani tashkil qilmoqda. 2023-yilda jami 97060 ta ovoz to'plangan bo'lib jami 20 127 700 ming.so'm moliyalashtirilgan**

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyati Norin tumani 2021-2023-yillardagi tashabbusli byudjet loyihalarini ko'rib chiqish jarayonida shunga amin bo'ldikki tashabbusli byudjet Norin tumanida yildan yilga ijobiy ko'rsatkichlar qayd qilmoqda bundan ko'rinib turibdiki fuqorolar bu dasturga befarq emas va o'zining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022

11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Файбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроқов У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.

24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. IB Masharipov. Relevance of civil society in the modern world, attitude and solutions. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. 2023